

2. Юқорида келтирилган таърифга асосан С нуктанинг горизонтал С' проекциясини Т' нуктадан узокрокдан танлаб олинса, изланаётган бурчак катталиги ҳам каттарок бўлади ва масаланинг ечими кўринимли бўлади. Шу асосда бундай масалаларнинг берилишини дизайн асосида танлашга эришилади.

Агар Т' ва С' нукталар орасидаги масофа кичик ёки $T \equiv C'$ бўлса, иккиёкли бурчак катталиги 0 га тенг бўлиб, масала кўринимсиз ечимга эга бўлиб қолади.

Шунингдек, икки ёкли бурчакнинг дизайн асосида берилишини танлашда унинг айқаш АС ва DB томонларидан ҳам фойдаланиш мумкин (6-расм).

Чизмада ABCD икки ёкли бурчакнинг фронтал проекцияси ва ABD томонининг горизонтал проекцияси берилган бўлсин.

Бунинг учун АС ва DB айқаш томонларида ётувчи рақобатлашувчи К ва Т нукталарнинг проекциялари ясалди, $K' \equiv T'$. АС томонда ётувчи Т нуктанинг горизонтал Т' проекциясини К' нуктадан мумкин қадар узокрокдан танлаб олиб, А'С' ўтказилади ва икки ёкли бурчакнинг АВС томонининг горизонтал проекцияси

ясалди. Шу асосда бундай масалаларнинг берилишини дизайн асосида танлашга эришилади.

Агар чизмада ABCD икки ёкли бурчакнинг горизонтал проекцияси ва ABD томонининг фронтал проекцияси берилган бўлса, АС томонда ётувчи Т нуктанинг фронтал Т' проекциясини К''' нуктадан иложи борица узокрокдан танлаб олинади.

Агар икки ёкли бурчакнинг ён текисликлари кесишмаган бўлса ва улар излари билан берилган бўлса, бундай масалаларнинг берилишини тўғри танлашда текисликларнинг излари ўзаро параллел ва бирининг бир изи, агар у проекцияловчи бўлса, иккинчи текисликнинг бирор изига перпендикуляр бўлмаслиги керак. Ақс ҳолда изланаётган бурчак тегишлича 180° га ёки 90° га тенг бўлади.

Шундай қилиб, юқоридаги баён қилинган рақобатлашувчи нукталар усулидан фойдаланиб, масалаларнинг берилишини дизайн талаблари асосида методик тўғри танлаш мумкин. Бу эса амалий машғулотларни ўтаётганда масала ечимининг кўринимли ва ишонарли чиқишини кафолатлайди.

Адабиётлар

1. www.e-reading.club. Ткачева М. Педагогическая психология: конспект лекций. online учебник.
2. Murodov Sh., Xakimov L., Xolmurzayev A., Jumayev M., To'xtayev A. Chizma geometriya. –Toshkent: Moliya-Iqtisod, 2006, 241-b.
3. Rixsiboyev T., Ashirboyev A., Xoshimova X. Chizma geometriya masalalarini tanlashning ba'zi usullari. TDPU, 2007..

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада нукта билан текислик ва айқаш тўғри чизиклар орасидаги масофани ҳамда икки ёкли бурчак кийматини аниқлаш каби метрик масалаларнинг берилишини рақобатлашувчи нукталар усулидан фойдаланиб, дизайн асосида оптимал танлаш методикаси баён қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье изложена методика оптимального выбора задания метрических задач, таких как нахождение кратчайшего расстояния от точки до плоскости, и между скрещивающимися прямыми, способом конкурирующих точек на основе дизайнерских требований, чтобы решение задач получилось более наглядным, достоверным и не выходило за рамки чертежа.

SUMMARY

Methods of the optimum choice of the task of the metric tasks is stated in the article, they are: as finding of the shortest distance between point and plane, and between lines of crossbreeding, by way of the rival points on the basis of design requirements so that the decision of the problems was got more demonstrative, reliable and was not beyond the scope of drawing.

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHISH

X.R.Sanakulov – *pedagogika fanlari nomzodi, docent*

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

A.R.Sanakulova - *katta o'qituvchi*

TVCHDPI huzuridagi XTXQTMO markazi

Tayanch so'zlar: mehnat, ta'lim va tarbiya, o'quvchilar, rangli qog'oz, karton, qaychi, qo'l mehnati, qirg'ish, yelimlash.

Ключевые слова: труд, образование и воспитание, учащиеся, ножницы, цветная бумага, картон, ручная работа, резать, клеить.

Key words: work, education and upbringing, students, scissors, colored paper, cardboard, hand work, to cut, to glue.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy vazifalardan biri ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, yoshlarda kitobxonlikga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni har tamonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tayyorlashdir.

Ma'lumki, ta'limda o'qitishning innovatsion didaktik vositalari ya'ni, audio, video, chizma grafika va animatsiyalar foydalanish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali usullarini qo'llash muhim hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda o'qitishning muhim vazifalardan biri o'quvchilarni texnologiya darslarida mustaqil fikirlashga undashi, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yosh avlodni tayyorlashdan iboratdir.

Boshlang'ich sinif texnologiya ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi texnologiya ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi ish turlarida amalga oshiriladi: a) qog'oz va karton bilan ishlash; b) gazlama va tolal imateriallar bilan ishlash; d) tabiiy va turli materiallar

bilan ishlash; c) badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish.

Texnologiya darslari xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda tashkil etiladi. Boshlang'ich sinif texnologiya darslarida o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, o'quvchilarda dastlabki nazariy va amaliy mehnat tajribalarini hosil qilish, zamonaviy multimediali vositalar borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, kishilar mehnati va mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga tayyorlash, o'ziga topshirilgan har qanday ishini chin yurakdan uddalay bilish, did-farosatli hamda mehnat qurollari, vositalari, jarayonlari, hududiy ishlab chiqarishning asoslarini o'rgatish, texnika va mehnat ta'limi multimediali vositalar zamonaviy (texnologiya) asosida egallanayotgan kasb-hunar sohasi xususiyatlari, shu sohaning ilg'or vakillari faoliyati bilan tanishtirish orqali kelajak hayotga tayyorlash nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinif texnologiya fanlarini, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologiya fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini

o`qitishning yangi usullaridan foydalanib, aniq amaliy ishlanmalarga tayangan holda tashkil etish lozim. Shundagina o`quvchilarda kasb-hunar tushunchalarini shakllanish darajasi jadal kechadi. Bu esa, o`z navbatida, boshlang`ich ta`limda texnologiya ta`limi yo`nalishidagi dapsliklarning jiddiy ravishda qayta ishlab chiqilishini taqozo etadi. Kelgusida yaratiladigan o`quv qo`llanmalar, ayni paytda mavjud qo`llanmalardan tuzilishi va mazmuni, o`quv materiallarining takomillashganligi bilan farq qilishi lozim. Boshlang`ich texnologiya ta`limi mazmunining asosiy tashkil etuvchilari hisoblangan fundamental va amaliy xarakterdagi o`quv materiallari har bir ta`lim muassasasining ta`lim va ixtisoslik yo`nalishidan kelib chiqadi. O`quv materiallari milliy qadriyatlar zahirida yetakchi nazariya va qonuniyatlar atrofida umumlashtiriladi. Boshlang`ich ta`lim muassasalarida texnologiya ta`limi uchun har bir sinflarda 34 soatdan vaqt ajratilgan. Texnologiya ta`limi bo`yicha mavjud bo`lgan o`quv reja, dasturlarni va darslik, o`quv qo`llanmalarni qiyosiy tahlil etish, ta`lim texnologiyalar asosida mehnat ta`limini amalda joriy etish hamda predmetlararo

bog`lanish asosida mehnat ta`limi o`qitish usullarini o`rganish shundan dalolat beradiki, o`quvchilarda kasb-hunar tushunchalarini shakllantirishga yo`naltirilgan mashg`ulotlar haligacha tashkil etilmagan. Shu bois texnologiya darslariga yangicha integratsion yondashgan holda darslarni tashkil etishni quyidagi darslar misolida ko`rib chiqamiz.

Mavzu: Qog`oz va kartonni oddiy usullar bilan buklab usullari. (2-sinf)

O`qituvchiga tavsiya: Qog`oz vakartonni oddiy va murakkab usullarda buklash. Qog`oz va kartonlarni oddiydan murakkab usulda buklab, buklash chiziqlar gragikasi chiziqli shakllar va burchaklar hosil qilish. Buklash chiziqlari orqali qog`oz va kartonlardan har xil maketlar yasash (mashina, daraxt, har xil gul shakllar, mushukcha, ot, quyoncha, sumkacha, soat, qayiqcha, xo`tikcha, kitob, qo`ziqorin, savatcha, kapalak, tuzdon, qurbaqa, oqqush, quloqli shapka, soyabonli shapka, qaldirg`och). Boshlang`ch sinflarda ta`lim datexnologiya darslarini olib borilishi. 1-soatlik dars ishlanmasi.

Mavzu	Qogʻoz va kartonni oddiy usullar bilan buklab usullari. (2-sinf)																							
Darsning maqsad	Taʼlimiy maqsad: Choʻlda yashovchi hayvonlar haqida tushuncha berish . Qogʻoz va kartonlardan buklash usulida mushukcha va xoʻtikcha shaklini yasash usullarini oʻrgatish. Tarbiyaviy maqsad: Hayvonlarga ozor bermaslik.Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash. Rivojlantiruvchi maqsad:Kasb turlari haqida maʼlumo tberish va qiziqishn ishakllantirish.																							
Darsning jihozlari	Koʻrgazmali vositalar: Multimediali vositalar slaydlar. Ishjihozlari: Rangli qogʻoz va kartonlar toʻplami, qaychi, qalam, chizgʻich, yelim, lattava ip.																							
Darsni amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Suxbat va savol-javob bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, koʻrgazmalilik, “Aqliy hujum”, amaliyish. Shakl: Amaliy mashgʻulot Baholash: 5 ballik tizimda baholash																							
Darsni amalga oshirish bosqichlari	<table> <tr> <td>Tashkiliy qism:</td> <td>7 daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Darsga tayyor boʻlish</td> <td>3-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Uy vazifalarini tekshirish</td> <td>10-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Asosiy qism:</td> <td>28 daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Aqliy hujum</td> <td>10-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Yangi mavzu bayoni etish</td> <td>3-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Amaliy ish</td> <td>10-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Kasblar boʻyicha maʼlumot</td> <td>7-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Yakuniy qism:</td> <td>5- daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Oʻquvchilar ishini baholash</td> <td>5-daqiqa</td> </tr> <tr> <td>Topshiriqlar berish</td> <td>2-daqiqa</td> </tr> </table>		Tashkiliy qism:	7 daqiqa	Darsga tayyor boʻlish	3-daqiqa	Uy vazifalarini tekshirish	10-daqiqa	Asosiy qism:	28 daqiqa	Aqliy hujum	10-daqiqa	Yangi mavzu bayoni etish	3-daqiqa	Amaliy ish	10-daqiqa	Kasblar boʻyicha maʼlumot	7-daqiqa	Yakuniy qism:	5- daqiqa	Oʻquvchilar ishini baholash	5-daqiqa	Topshiriqlar berish	2-daqiqa
Tashkiliy qism:	7 daqiqa																							
Darsga tayyor boʻlish	3-daqiqa																							
Uy vazifalarini tekshirish	10-daqiqa																							
Asosiy qism:	28 daqiqa																							
Aqliy hujum	10-daqiqa																							
Yangi mavzu bayoni etish	3-daqiqa																							
Amaliy ish	10-daqiqa																							
Kasblar boʻyicha maʼlumot	7-daqiqa																							
Yakuniy qism:	5- daqiqa																							
Oʻquvchilar ishini baholash	5-daqiqa																							
Topshiriqlar berish	2-daqiqa																							

Amaliy ish bosqichlari o`rganilgandan so`ng, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari olib boriladi. Baliqlar bilan shug`ullanuvchi kasb egalari to`g`risida boshqotirma beriladi. O`quvchilar boshqotirmanini mustaqil bajaradilar. Masalan, belgilar o`rniga harflarni qo`yib baliq tutuvch kasb egasi nomini toping.



Башқотирма натижалари е'лон қилинган со'нг, о'қувчиларга балиқчи то'ғ'рисиди ма'лумотлар берилди.

Балиқчи фурсат кутар,	Ов бо'лиши учун зо'р.
Балиқчи балиқ тутар.	Излар балиқ ко'п joyни
Балиқ тутиш вақти бор,	Дарьо, ко'л yoki соynи.
Бунга берар е'tибор.	Қайиқда дарьо kezар
Ташлар қармоқ yoki то'r	Yaxshi ов joyин sezar.

Хулоса қилиб оладиган бо'лсак башланг'ич синфларида о'қувчиларни технология фанларига бо'лган қизиқишини yuksaltirish bilim, ko'nikma va malakalarnи oshirish. Har

bir dars mashg'ulotida o'quvchilarnи kasblar bilan tanishtirish. Mehnatga qiziqish hamda insonparvarlikka, vatanparvarlikka, mehnatsevarlik va ota-onaga bo'lgan muhabbatini shakllantirish. Zamonaviy texnika borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, ularda o'ziga topshirilgan vazifalarga mustaqil fikrlar asosida yondashish va uddalay bilish, o'z ishini va o'rtoqlarining ishlarini rejalashtirish hamda tashkil eta olishga o'rgatish orqali kelajakda yetuk bir kasb egasi bo'lib yetishishiga imkoniyatlar yaratib berishdir.

Adabiyotlar

1. Sanaqulov X.R., Xodиеva D.P., Satboeva M. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" –Toshkent: 2015.
2. Sanaqulov X.R., Xodиеva D.P. "Mehnat ta'limidan amaliy ishlar" TDPU, 2007.
3. Sanaqulov X.R., Xodиеva D.P., Sanaqulova A.R. "Mehnat ta'limi" Ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. -T.: "Sharq" 2016.
4. Ergashev Sh. va boshqalar. "Kasblar alifbosi" Ўқув қўлланма. "Yurist-mediemarkazi" 2008.
5. Pereverten V. "O'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish". -T.: "O'qituvchi". 1990.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarnи kasb-hunarga yo'naltirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье приведены методические рекомендации по профориентации учеников начальной школы на уроках труда.

SUMMARY

The article provides guidelines and methodical recommendations for primary school students at the labor classes.

СОЦИАЛ ИНТЕЛЛЕКТ ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

Д.А.Собирова – психология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
Бухоро давлат университети

Таянч сўзлар: социал интеллект, касбий компетентлик, касбий маҳорат, касбий позиция, когнитив, эмоционаллик, социал мослашувчанлик, КОСКОМ-2.

Ключевые слова: социальный интеллект, профессиональная компетентность, профессиональные навыки, профессиональное положение, познавательная, эмоциональная, социальная гибкость, КОСКОМ-2.

Key words: social intellect, professional competence, professional skills, professional position, cognitive, emotional, social flexibility, КОСКОМ-2.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар жараёнида тиббиёт ходими фаолиятига қўйиладиган талаблар унинг ҳам касбий, ҳам шахсий камолоти билан боғлиқ масалаларни ўз ичига қамраб олгандир. Шу боисдан тиббиёт ходимлар фаолиятининг индивидуал-психологик ва ижтимоий-психологик компонентлари ролини тўғри белгилай олиш унинг касби камолоти муҳим шарти сифатида намоён бўлади. Бугунги кунда ушбу муаммоларини психологик тадқиқ этиш тиббиёт ходими фаолиятининг турли жабҳаларини ўрганишга эришганлигини кўрсатса-да, ammo унинг ижтимоий-психологик жиҳатларини эътибордан четда қолдириб бўлмаслигини ҳам тасдиқламоқда.

Жумладан, соғлиқни сақлаш соҳасининг ривожланиши, биринчи навбатда, ушбу жараёни ташкил этувчи, бошқарувчи, назорат қилувчи тиббиёт ходимларининг дунёкараши ва тафаккуридаги ўзгаришларга, яъни уларнинг касбий компетентлигига бевосита боғлиқ

Тиббиёт ходимларининг касбий маҳорати ва компетентлигининг ўзаро алоқадорлиги масаласи бир қатор педагогик-психологик адабиётларда очиб берилган. Унда касбий маҳоратни туғма хусусиятлар ва фазилатлар билан шартли белгиланмаслиги таъкидланган ва шу билан бирга ушбу маҳоратнинг касбий компетентлик билан шартланганлиги ҳолати алоҳида қайд этилган. Демак, тиббиёт ходимлари касбий компетентлигининг тўлиқ тузилмаси мотивацион-йўналтирувчи бўгин, ривожлантирувчи, тузатувчи коррекцион ва касбий маслаҳат характериға эга бўлганлиги билан характерланади.

Шу нуқтаи назардан тиббиёт ходимлари социал интеллектини ўрганиш жараёнида ҳар бир тиббиёт ходимининг социал психологик компетентлиги ва

унинг ўзига хос имкониятларини ўрганиш ва тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Юқоридагиларга асосланиб тадқиқотимизда тиббиёт ходимларининг касбий компетентлиги, унинг социал интеллектига ҳам боғлиқ деган мулоҳазани илгари сурган ҳолда тиббиёт ходими социал интеллект ва социал психологик компетентлик ўртасидаги уйғунлиқни ўрганишни мақсад қилиб олдиқ.

Эмоционаллик билан социал интеллект тушунчаларини мазмунан таҳлил этганда, бир бирдан фарқ қилувчи ҳолат кузатилади, яъни интеллект тушунчасининг когнитив жиҳатдан инсон онги билан боғлиқ эканлиги, эмоционаллик ва социаллик эса шахс фаолиятининг аффектив соҳасига яқинроқ эканлигини ифодалайди, ammo муаммонинг мазмунида акс этаётган икки тушунчани таҳлил этишда бошқачарок позициядан туриб ёндашиш мақсадга мувофиқ бўлади. Эмоционал интеллект шахснинг эмоциялари, уларнинг ифодаланиши ва тартибга солинишини билдиради.) [5].

Тиббиёт ходимлар социал интеллектини тадқиқ этиш дастуридан кутилаётган ғоянинг туб замирида шифокорнинг касбий фаолияти ва касбий компетентлигининг юқори натижаларга эришишига йўналтиришини таъминлашдан иборат.

Биз социал интеллектга доир изланишларга таяниб тиббиёт ходимлари социал интеллектини белгиловчи мезонлар мажмуасини қуйидагиларга ажратдик.

1. Когнитив;

1.1. Инсонлар ҳақида, ўзга инсонларни тушунишнинг махсус қоидаларини билиш;

1.2. Социал хотира–инсонларнинг қиёфаси, исмини ўзлаштиришга йўналтирилган хотира;

1.3. Социал интуиция –инсонларнинг кайфиятини, туйғуларини, хатти-ҳаракатларини тушуниш мотиви, социал мазмундаги хулқ-атвори ни мос тарзда кузатув